

"KORRUPSIYANING MOHIYATI VA UNING OQIBATLARI"**Jovliyeva Nafosat Bahodir qizi***Shahrisabz davlat pedagogika**instituti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda global muammoga aylanib borayotgan korrupsiya haqida tushunchalar, korrupsiyaning kelib chiqishi va mohiyati, korrupsiyaning natijalari, uning oldini olish uchun bugungi amalga oshirilayotgan ishlar haqida malumot berilgan*

Kalit so'z: *korrupsiyaning natijalari, oqibatlari, korrupsiya ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot, jamiyat, barqarorlik, huquqiy ong*

Kirish: Korrupsiya (lot. Corruptere-buzmoq) atamasini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini o'ylab qonunchilik va axloq normalariga zid ravishda foydalanishni anglatadi. Korrupsiya davlat boshqaruvi biznes va ijtimoiy hayotining barcha siyosiy iqtisodiy manaviy jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. U ko'pgina davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqiga qarshi harakat sifatida qaraladi. Korrupsiyaning kelib chiqish tarixi juda qadimga borib taqalib bu qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqanligi taxmin qilinadi. Usha vaqda bu odatiy jarayon sifatida qaralgan bo'lsa hozirgi kunda iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy zarar yetkazadi. Davlat byujetidan ajratilayotgan mablag'larning samarasiz ishlatilishini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ijtimoiy infratuzilma rivojlanmaydi va davlat hududida investitsion muhit yomonlashadi. Korrupsiyaning natijasida fuqarolar adolatsizlik va tabaqalanish kuzatiladi, davlat boshqaruv tizimining zaiflashishi, sog'liqni saqlash hamda ta'lim sohasiga beradigan zarari turli muammolar va yetishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Misol uchun: korrupsiya tufayli sog'liqni saqlash tizimida sifatsiz dori-darmonlar bemorlar sonini oshishiga va turli kasalliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Ta'lim sohasidagi zarari esa ko'plab malakali kadrlar, mutaxassislarining yetishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi. Ushbu sifatsiz ta'lim ta'sirida korrupsiya jamiyat va davlat rivojlanishi uchun katta

to'siq ekanligi namoyon bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida shumer davlatini tan olishgan. Bu orqali qadimgi davrda ham huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha yetib kelgan manbalarda ma'lum. Korrupsiyaning rivojlanishi davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tanazzulga olib keladi. Shu bilan birga korrupsiya jinoyati davlat va jamiyatning barqarorligi, tinchligi, taraqqiyotga xavf soluvchi illatdir.

Shu boisdan 18 asrning 2-yarmiga kelib, usha davrda korrupsiyaning turli ko'rinishlariga qarshi qonunlar bir qancha qonun hujjatlarida namoyon bo'ladi. Xususan 1787-yilda qabul qilingan AQSH konstitutsiyasida pora olish AQSH prezidentining lavozimidan ozod qilish mumkin bo'lgan 2ta jinoyatning biri sifatida qaralgan.

Hozirgi kunda korrupsiya muammosi dunyo miqyosida bartaraf etilishi kerak bo'lgan global muammolardan biridir. Shuning uchun ham korrupsiya masalasiga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etgan holda, jahon siyosatining dolzarb masalasi qatorida turadi. 2003-yil 9- dekabrda Meksikada Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasi imzolangan. Bu xalqaro kunni belgilanishining asosiy maqsadi Bosh Assambleya rezolyutsiyasida qayd etilgan kabi korrupsiya muammosining oldini olish va unga qarshi kurashishdagi rolidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashda samarali bo'lgan bir nechta muhim harakatlar mamlakatni kelajagini saqlab qolishi mumkin. Bu harakatlar quyidagilar hisoblanadi:

1. Shaffoflikni oshirish – Davlat xarajatlari, shartnomalar va qarorlar ochiq bo'lishi kerak. Masalan, Ochiq Ma'lumotlar (Open Data) tizimi orqali fuqarolar davlat harakatlarini kuzatishi mumkin.

2. Raqamlashtirish – Elektron hukumat va onlayn xizmatlar korrupsion holatlarni kamaytirishga yordam beradi. Masalan, O'zbekistonda davlat xizmatlarining my.gov.uz orqali taqdim etilishi inson omilini kamaytirib, korrupsiyani cheklaydi.

3. Kuchli qonunchilik va jazolar – Korrupsiyaga aloqador shaxslar uchun qat'iy jazo choralari ko'rilishi kerak. Singapur bunga yaxshi misol bo'lib, korrupsiyaga qarshi qat'iy qonunlar va mustaqil tergov idorasi (CPIB) tufayli korrupsiyani sezilarli kamaytirgan.

4. Xalqni xabardor qilish va ta'lim – Fuqarolar va xodimlarga korrupsiyaning zararlari haqida tushuntirish ishlari olib borilishi kerak. Misol uchun, Finlyandiyada maktablarda korrupsiyaga qarshi ta'lim beriladi.

5. Mustaqil ommaviy axborot vositalari – Erkin jurnalistika korrupsiyani fosh qilishda muhim rol o‘ynaydi. "Panama hujjatlari" (Panama Papers) misolida ko‘rishimiz mumkin, jurnalistlar katta korrupsion sxemalarni aniqlashga yordam berishgan.

6. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – Nodavlat tashkilotlar (NNT) va jamoatchilik korrupsiyaga qarshi kurashda faol bo‘lishi lozim. Transparency International kabi tashkilotlar turli davlatlardagi korrupsiya darajasini kuzatib boradi. Bu harakatlar birgalikda olib borilganda korrupsiyani kamaytirish va jamiyatni yanada adolatli qilishga yordam beradi.

O‘zbekiston xalqaro reytingda 180 ta davlat orasidan 158-o‘rinni egallagan. Transparency International tashkilotining hisobotiga ko‘ra Yangi Zelandiya eng kam korrupsiyalashgan davlat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oliy majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish buyicha qo‘mitalar tashkil qilishni taklif berdi.

Hozirda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish unga qarshi kurashish buyicha tashkiliy - huquqiy choralar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-yil 4-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining "korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi qonuni kuchga kirdi, bundan tashqari davlat rahbarining 2019-yil 27-maydagi "o‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish chora --tadbirlari to‘g‘risida "gi 5729-son farmon qabul qilindi bu hujjat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yaxshi sohalardagi qulay ish samaradorlik muhitini yaratib mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini yanada oshirishga qaratilgan.

Ta‘lim sohasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish buyicha universitetlarda talaba yoshlar o‘rtasida turli tadbirlar, huquqiy ongini rivojlantirish buyicha qator ishalar, jumladan, ko‘rik tanlovlari, turli loyihalar tashkil etilgan. Xususan, Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabalari orasida huquqiy bilimlarni oshirish, ta‘lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida bilimlar ulashilmoqda. Huddi shu jarayonda Marjona Juraqulova muallifligi ostida tashkil etilgan "Akademik Halollik milliy dasturi" loyihasi o‘z samarasini berib kelmoqda. Bu loyihada Akademik halol bo‘lish, talabalarning ilmiy faoliyatida akademik halollikning ahamiyatini targ‘ib qilish kabi tushunchalarni singdirilmoqda. Xuddi shu yunalishda Qarshi davlat universiteti

talabalarini korrupsiyaga qarshi kurashga undovchi "korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish" loyihasi Maftuna Saidova muallifligida "korrupsiyasiz kelajak" shiori ostida talaba yoshlar o'rtasida targ'ibot ishlari, ogohlikka chaqiruvchi tadbirlar bilan birga olib borilmoqda.

Korrupsiya jamiyat va davlat boshqaruvi uchun katta muammo bo'lib, u turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Quyida ba'zi asosiy qiyinchiliklar keltirilgan:

1. Iqtisodiy o'sishning sekinlashishi – Korrupsiya biznes muhitini buzadi, sarmoyadorlarni qo'rqitadi va iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi.

2. Adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlik – Korrupsion tuzumda boylar va mansabdorlar ko'proq foyda ko'radi, oddiy fuqarolar esa zarar ko'radi.

3. Hukumatga bo'lgan ishonchning pasayishi – Fuqarolar hukumat va davlat idoralariga ishonmay qo'yishi mumkin, bu esa siyosiy beqarorlikka olib keladi.

4. Davlat resurslarining samarasiz sarflanishi – Korrupsiya tufayli budjet mablag'lari noto'g'ri yo'nalishlarga ketib, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar yetarlicha rivojlana olmaydi.

5. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga zarar – Korrupsiya sababli muhim ijtimoiy sohalarga ajratilgan mablag'lar to'g'ri ishlatilmaydi, natijada ta'lim sifati va tibbiyot xizmatlari yomonlashadi.

6. Qonun ustuvorligining buzilishi – Korrupsion tizimda qonun faqat kuchlilar foydasiga ishlaydi, bu esa jamiyatda adolatsizlik va huquqiy beqarorlikka sabab bo'ladi.

7. Ekologik muammolar – Korrupsiya natijasida noqonuniy konchilik, o'rmonlarning kesilishi va ekologik me'yorlarning buzilishi sodir bo'lishi mumkin. Bu qiyinchiliklar jamiyat rivojlanishini sekinlashtiradi va uzoq muddatli zarar keltiradi. Korrupsiya bilan kurashish uchun shaffoflikni oshirish, qonunlarni kuchaytirish va fuqarolar ongini oshirish muhim

Xulosa: korrupsiya masalasi jamiyatning barcha jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan dolzarb muammo bo'lib, uning oqibatida iqtisodiy inqiroz ijtimoiy adolatsizlik va davlat boshqaruv tizimining zaiflashuviga sabab buladi. Bu illatni ildizini yo'q qilib oldini olish uchun shaffof boshqaruv tizimini yulga quyish fuqarolarning huquqiy ongini va faolligini oshirish ahamiyatlidir. Har bir fuqaro korrupsiyaga qarshi masalalarga huquqbuzarlik holatlarini aniqlashda faol ishtirok

etishi ham davlat va jamiyatda ishonch mustahkamlanib barqaror taraqqiyotning rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni.
2. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty – iqtisodiy va siyosiy tizimlarda korrupsiyaning ta’siri haqida.
3. Transparency International www.transparency.org – Korrupsiya Persepsiya Indeksi va xalqaro tahlillar. 4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC). 6. Jumayev Firdavs Bekzod o‘g‘li. "Korrupsiyaning mohiyati, uning davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va jamiyatga ko‘rsatadigan zararli oqibatlar" International Journal of Recently Scientific Researcher’s Theory, 2024-yil, 2(8), 95–97-betlar.
4. Saminov Shohjahon Sharifjon o‘g‘li "O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash, muammolar va istiqbollari" Tadqiqotlar.uz, 2024-yil, 40(6), 36–40-betlar.
5. Qurbonov Sh.Q. "Korrupsiya taraqqiyot kushandasi. International Scientific Journal, 2022-yil, 1627 sahifa.
6. Baxti Ochilova. "Korrupsiya va ijtimoiy hayot" Scienceweb, 2021-yil.
7. Boymurzayev Isomiddin Azizbek o‘g‘li. "Korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri". Modern Education and Development, 2024-yil, 16(1), 211–215-betlar.
8. Saydolimova Feruza Sultonxo‘ja qizi. "Korrupsiyaning kelib chiqish ildizlari va uning sabablari" Наука и инновация, 2023-yil, 1(13), 59–62-betlar.
9. lex.uz lex.uz/mact/-3088008 <https://lex.uz/mact/-3088008> 10. Anticorruption.uz Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish | Anticorruption.uz <https://anticorruption.uz/oz/korrupsiyaning-oldini-olish-va-unga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-amalga-oshirish>
11. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." Journal of Survey in Fisheries Sciences 10.1S (2023): 5000-5006.

12. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.

13. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." World of Scientific news in Science 1.3 (2023): 15-28.

14. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." Global Scientific Review 13 (2023): 7-10.

15. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o‘g‘li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘." TADQIQOTLAR. UZ 40.4 (2024): 135-139..

16. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

17. Azamova S. EKOLOGIK TA‘LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.